



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 4 (6)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

4

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Конвергенция и поляризация развитых и развивающихся стран в эпоху развития искусственного интеллекта.....	8
Mamatov B.S. Foreign investment is an important factor of economic growth.....	15
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya kompaniyasining rivojlanish tendensiyasi.....	22
Karimov Sh.X. Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....	26
Raximov D.Sh. To‘qimachilik sanoatida diversifikatsiya darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili.....	30
Rashidova K. Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing faoliyati samaradorligini oshirish.....	32
Хакимов Д.Р. Процессы, возможности и ограничения экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой.....	37
Olimjanova Sh.O., Eshonqulov I.N. O‘zbekistonda agrar munosabatlarni takomillashtirishda resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish masalalari.....	42
Valikulov Sh.Z. O‘zbekistonda neft-gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning institutsional muammolari va yechimlari.....	48
Ganieva L.S. Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.....	52
Axrorova N.U. Turizm xizmatlaridan tajriba iqtisodiyotiga o‘tish: evolyutsion tahlil.....	56
Kamilova A.N. Sanoat ishlab chiqarish korxonasida mehnatni normalashtirish menejmentini tashkil etish va takomillashtirish yo‘llari.....	61
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari.....	66
Abdiyeva D.K. Priority directions for improving the national logistics policy in Uzbekistan.....	69
Xalimova N.J. Kreativ turizm: nazariy asoslar va ta’riflar qiyosiy tahlili.....	74
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda qadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	78
Zaxirova G., Shavkatova N.O’. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari.....	82
Maxmudov H., Muxtarova G., Maxmudov H. Ekologik muommolar va ularning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri.....	86
Umurzakova M.N., Gulahmadov Sh.A. Davlat ichki va tashqi qarzlarning ijobiy va salbiy jihatlar tahlili.....	89
Xasanov I.M. O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarning transformatsiyasi: tadbirkorlikni rivojlantirish omili sifatida.....	94
Abdullayev M.G’. Personalni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning korxona samaradorligiga ta’siri.....	101
Адилов Б.Б., Абдуллаева М.К. Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантириш, тенденциялари.....	105
Абдуғаниев Ё.Ж. Яшил иқтисодиёт - барқарор ривожланиш мақсадларининг янги парадигмаси сифатида.....	112
Xusanboyeva T.M. Talabalarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati.....	116
Xashimova S.N. O‘zbekiston milliy yashil taksonomiyasi mohiyati va ahamiyati.....	120
Mitillayev I.T. Tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari.....	124
Бобоқулова М.Ғ. Инвестиция муҳити ва Ўзбекистондаги инвестиция жараёнларининг динамикаси.....	127
Bekberganova M.R. “O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tushumlarining ekonometrik tahlili”.....	134
Рахимова М.Ш. Модернизация системы социальной защиты.....	138
Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘llari....	142
Djumanova R.F. Aholi turmush sifatini baholashning metodologik yondoshuvlari.....	147
Mamatov B.S., Umurzakova M.N. Davlat tibbiy sug‘urta tizimida bepul xizmatlar, reimbursasiya va foydalanish shartlari.....	154
Ешимбетов У.Х. Қишлоқ хўжалигини ҳудудий ташкил этиш ва иқтисослаштиришнинг илмий асослари.....	158
Xodjaeva F.K. Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish....	167
Yusupova M. Hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	171
Abduxalilov B.Z. O‘zbekistonda IT provayderlar xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: huquqiy va institutsional asoslar.....	175
Abdisamatov A.A. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	178

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

Abdusalomov I.J. Korxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarga ta'siri.....	182
Amirov L.F., Sokhibjonova S.S. Directions for increasing agricultural product exports in the context of a green economy.....	185
Boltaxo'jayeva I.O'. Ways to improve the enterprise management system based on modern management models.....	191
Dehqonov U.M., Sativaldiyeva G. Korxonalarda bo'nak to'lovlari hisobining moliyaviy hisobotga ta'siri va ularni optimallashtirish bo'yicha tahliliy yondashuvlar.....	195
Isoqova M.A. O'zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari.....	199
Mamadaliyev B., Teshaboyev J. Korxonalarda mehnatga haq to'lash hisobini avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish yo'llari.....	202
Poziljonov M., Teshaboyev X. Davlat muassasalarida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	206
Rustamova F.A. Qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli.....	209
Tursunboyev Q.O. Transport xizmatlari ko'rsatish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	213
Umarov T.S. Hududlarda qurilish korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etishni ekonometrik modellash va prognozlash.....	216
Xo'jaliyev A.O., Avilov N. Moliyaviy natijalar hisobi va auditda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....	220
Xomidov T.T., Arziboyeva R.S. Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillari.....	223
Xusainov M. Sanoat korxonalarida mahsulot tannaxsini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari va audit mexanizmlarini rivojlantirish.....	227
Begaliyeva M.A., Egamshukurova N.R. Jahon savdo tizimi va milliy iqtisodiyot uchun uning ahamiyati..	231
Gulimboyev S.I. Korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy usullari.....	235
Ibodov J.Q. Moliyaviy tizimning xizmatlar sohalari va bo'g'inlari.....	239
Jumabayeva K.B. Xalqaro pensiya tizimi modellari va ularning mintaqaviy tamoyillari.....	243
Khusanova Z.R., Yo'ldasheva Z.U. Global trends in the development of international tourism services....	249
Sadullayev M.D. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish.....	252
Tilabov N.T. Davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	256
Toshtemirov Y.N. O'zbekistonda logistik faoliyatni rivojlantirishning hozirgi darajasi.....	264
Toshtemirova Z.M. Mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati.....	268
Uralov E.O. Surxondaryo viloyati xududida sanoatni shakllanishi va rivojlanishi.....	273
Xursanova F.Sh. Budjetlararo munosabatlarning iqtisodiy mazmuni.....	278
Yuldasheva G.A. Investitsion qarorlarni kabul qilishda moliyaviy tahlilning ahamiyati va roli	282
Абдуллаева Р. Тadbirkorlikning zamonaviy kuryentlari.....	287
Юлдашев А. Фаргона вилояти маҳаллаларида инвестиция фаоллигини оширишнинг институционал асослари	292
Abdumalikova Z., Razakova B.S. O'zbekiston sug'urta bozorini moliyaviy texnologiyalar (insurtech) asosida rivojlantirish: imkoniyatlar va yo'nalishlar.....	294
Azimov B.F. Milliy innovatsion tizimni boshqarishda tashkiliy-institutsional va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning roli.....	300
Begaliyeva M.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini samarali joriy etishning ahamiyati.....	304
Dawletmuratov A.M. Xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va daromadlarni ko'paytirish mexanizmlari.....	308
Karimova L.S., Jabborov A.A. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot: holati, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	313
Maxmudov F.U. Oliy ta'lim muassasalarida moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....	319
Navruz-zoda L.B. Kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyati va bilim infratuzilmasiga bo'lgan talablari: Buxoro viloyati misolida.....	323
Nishonboyev D.E., Abdumalikov S.T. Chorvachilik tarmog'ini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish istiqbollari.....	327

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

Nurmirezayeva N.R. Valyuta kursi o‘zgarishining eksport-importga ta’siri: O‘zbekiston misolida amaliy baholash.....	331
Rahimov A.M. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.....	335
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi va uni joriy etish.....	339
Ravshanova M.M. Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning elektron tijorat tizimidagi o‘rni.....	343
Ro‘ziboyeva M. O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarish dinamikasi.....	347
Saidova F.K., O‘rozov Sh. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va yashil iqtisodiyot: logistika sektorida boshqaruv strategiyalari.....	350
Sultonov S.N. Hududlarda klasterlarini investitsion - innovatsion rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida).....	354
Sultonova D.U. Korxona iqtisodiyotida resurslarni boshqarishning raqamli-integratsiyalashgan modelini takomillashtirish.....	358
To‘raxojayev H.H., Hoshimov P.Z. Islomiy banklarning ishlash tamoyili va islom moliya tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga tadbiri.....	362
Tursunova N.U. Bridging the innovation gap: development-focused entrepreneurship support and international intermediaries.....	368
Акрамова Г.А. «Роль женщин-ученых в совершенствовании механизмов коммерциализации ремесленных услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики».....	374
Болтаев Ж.А. Трансформация банковского сектора в условиях цифровизации мировой экономики..	379
Жунайдуллаев М.А. Жанубий Кореяда рақамли таълим технологиялари орқали индивидуал спортчиларини тайёрлаш тизимини бошқаришнинг миллий хусусиятлари.....	384
Митрушова М.Л. Интеллектуальный капитал как ключевой фактор инновационного развития предприятия.....	388
Муродов О.У. Барқарор ривожланиш тушунчаси ва унинг иқтисодий, ижтимоий ҳамда экологик мезонлари.....	392
Саидова Г., Ибрагимова К., Қурбонов А. Рақамли трансформация шароитида енгил саноат корхоналари маҳсулотларининг халқаро рақобатбардошлигини ошириш стратегиялари.....	396
Sarkarov S.Z. O‘zbekistonda qurilish sohasining texnologik bisqichlar kesimida rivojlanishi.....	401
Minojiddinova N.M. Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida xodimlarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....	406
Ruzmetova I.Y. Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni.....	410
Qudratov D., Ismoilov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoqlar rivojidadagi o‘rni.....	414
Qodirov H.D. Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish yo‘llari.....	417
Kinjayev K.N. Banklarda kreditlar tasnifini yaxshilash orqali rentabellikni ta’minlash yo‘llari.....	421
Макушина А.Ю. Государственная поддержка экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в Республике Узбекистан.....	424
Rejapov X.X., Oxunjonova K.K. Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – Bek Baraka savdo majmuasi misolida.....	430
Махкамова Н.С. Роль государственно-частных партнерств (ГЧП) в продвижении устойчивого развития	434
Avilov N., Muhammadova G. Korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlili.....	441
Abdullayeva R.G., Raxmonova I.S. O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash holati va rivojlanish tendensiyalari.....	444
Yusupova M.B. Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning ABC usuli.....	447
Toshpo‘latov M.A. Ta’lim loyihalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishning xususiyatlari...	452
Hamidova Sh., Ahmadaliyeva H. Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik tahlili.....	458
Хамракулов С.М. Собственный капитал в функционировании экономических субъектов Республики Узбекистан.....	461
Zayavitdinova N.M. Raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	465
Turg‘unov T.S. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik taxlil qilishning ahamiyati.....	469
Ботирова З.Қ. Рақамли иқтисодиёт шароитида даромадларни бошқаришнинг хусусиятлари....	475
Бегимова Н.К. Меҳнат бозорида гендер тафовутларининг келиб чиқиш сабаблари.....	481

KREATIV TURIZM: NAZARIY ASOSLAR VA TA’RIFLAR QIYOSIY TAHLILI

ТВОРЧЕСКИЙ ТУРИЗМ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ОСНОВ И ОПРЕДЕЛЕНИЙ

CREATIVE TOURISM: A COMPARATIVE ANALYSIS OF THEORETICAL BASIS AND DEFINITIONS

Xalimova Nigina Jafarbekovna
Buxoro davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada kreativ turizm tushunchasining nazariy-konseptual asoslari keng ko‘lamli ilmiy manbalar asosida o‘rganiladi. Xususan, sohadagi eng ko‘p iqtibos keltirilgan xorijiy tadqiqotlar, UNESCO va UNWTO kabi xalqaro tashkilotlar hamda ixtisoslashgan tarmoq tuzilmalari tomonidan taklif etilgan ta’riflar tizimli ravishda tahlil qilinadi. Kreativ turizm tushunchasining kelib chiqish tarixi, uning an’anaviy madaniy turizmdan farqlanuvchi jihatlari va zamonaviy ijodiy iqtisodiyot paradigmasi bilan kesishish nuqtalari o‘rganilgan. Qiyosiy tahlil metodologiyasi asosida ta’riflarning umumiy va o‘ziga xos belgilari aniqlanib, kreativ turizmning konseptual modeli ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kreativ turizm, madaniy turizm, ijodiy iqtisodiyot, turistik ta’riflar, autentik tajriba, ijodiy ishtirok, barqaror turizm.

В данной статье на основе широкого спектра научных источников изучаются теоретические и концептуальные основы концепции креативного туризма. В частности, систематически анализируются наиболее цитируемые зарубежные исследования в этой области, определения, предложенные международными организациями, такими как ЮНЕСКО и ВТО, а также специализированные отраслевые структуры. Изучается история возникновения концепции креативного туризма, ее отличия от традиционного культурного туризма и точки пересечения с современной парадигмой креативной экономики. На основе методологии сравнительного анализа выявляются общие и специфические особенности определений, и разрабатывается концептуальная модель креативного туризма.

Ключевые слова: креативный туризм, культурный туризм, креативная экономика, определения туризма, аутентичный опыт, творческое участие, устойчивый туризм.

This article studies the theoretical and conceptual foundations of the concept of creative tourism based on a wide range of scientific sources. In particular, the most cited foreign studies in the field, definitions proposed by international organizations such as UNESCO and UNWTO, and specialized industry structures are systematically analyzed. The history of the origin of the concept of creative tourism, its differences from traditional cultural tourism, and points of intersection with the modern creative economy paradigm are studied. Based on the methodology of comparative analysis, the general and specific features of the definitions are identified, and a conceptual model of creative tourism is developed.

Keywords: creative tourism, cultural tourism, creative economy, tourist definitions, authentic experience, creative participation, sustainable tourism.

XXI asrning ikkinchi choragida global turizm sohasi misli ko‘rilmagan strukturaviy o‘zgarishlarga duch kelmoqda. Turizm xizmatlari bozorida keng ko‘lamli, standartlashtirilgan mahsulotlarga talab pasayib, shaxsga yo‘naltirilgan, mazmunli va noyob tajribalar bilan boyitilgan sayohat shakllariga intilish kuchayib bormoqda. Mazkur tendensiya turizm nazariyasida yangi

konseptual yondashuvlarning shakllanishini zarur etib qo‘ydi va kreativ turizm aynan shu intellektual muhitda paydo bo‘lib, tezlik bilan ilmiy hamda amaliy doiralarda tan olindi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi dunyo ilm-fanida eng ko‘p iqtibos keltirilgan asarlar, xalqaro tashkilotlarning rasmiy hujjatlari va ixtisoslashgan tarmoq yo‘riqnomalari asosida kreativ turizm ta’riflarini qiyosiy tahlil qilish, ulardagi umumiy va farqlovchi belgilarni aniqlash hamda konseptual modelni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot Scopus, Web of Science va Google Scholar ma’lumotlar bazalarida iqtiboslar soni bo‘yicha yuqori reytingga ega bo‘lgan asarlar tanlash mezoniga asoslanadi.

Kreativ turizm tushunchasi ilmiy muomalaga birinchi marta britaniyalik tadqiqotchilar Greg Richards va Crispin Raymond tomonidan olib kirilgan (2000). Ularning ATLAS (Association for Tourism and Leisure Education) tashkiloti nashrida e’lon qilingan va keyingi ikki dekada mobaynida 1500 martadan ortiq iqtibos keltirilgan maqolasi sohada asosiy nazariy tayanch sifatida tan olingan.

Mualliflar kreativ turizmni an’anaviy madaniy turizmdan tubdan farqlantiruvchi mezon sifatida turistning ishtirokchilik darajasini ilgari suradilar.

Ularning konsepsiyasiga ko‘ra, madaniy turizmda sayyoh meros va san’atni tashqaridan kuzatuvchi passiv subyekt bo‘lsa, kreativ turizm u shu jarayonning faol va ijodiy ishtirokchisiga aylanadi. Bu farq shunchaki yondashuv o‘zgarishi emas, balki turizm falsafasidagi paradigmatic siljishni anglatadi. Keyinchalik Richards (2011) o‘zining Annals of Tourism Research jurnalida chop etilgan va 2000 martadan ortiq iqtibos keltirilgan fundamental maqolasida kreativ turizm tushunchasini yanada kengaytirdi. U kreativ turizmni nafaqat madaniy-turistik kategoriya, balki ijodiy iqtisodiyot (Florida, 2002) va tajriba iqtisodiyoti (Pine & Gilmore, 1999) nazariyalari bilan organik bog‘liq, kompleks sotsial-iqtisodiy hodisa sifatida talqin qildi. Mazkur yondashuv kreativ turizmni barqaror rivojlanish strategiyasining muhim instrumentiga aylantirdi.

Xalqaro tashkilotlar orasida UNESCO (2006) kreativ turizm bo‘yicha birinchi tizimli konseptual ta’rifni rasmiylashtirib, uni madaniy turizmning yangi avlodi sifatida belgiladi. UNWTO esa 2018-yilgi hisobotida bu ta’rifni institutsional darajada mustahkamlab, kreativ turizmni barqaror turizm rivojlanishining ustuvor yo‘nalishi sifatida ko‘rsatdi.

Duxbury va Gillette (2007) kreativ turizmni ijodiy shaharlar (creative cities) konsepsiyasi bilan uzviy bog‘lab, mahalliy jamoat rivojiga ta’sirini alohida o‘rgandilar. Creative Tourism Network (2015) esa amaliy tashkilot sifatida kreativ turizmni joriy etishning global tajribasini umumlashtirib, ta’rifni amaliyot nuqtai nazaridan yanada konkretlashtirdi.

Quyidagi jadvalda kreativ turizmga berilgan yetakchi ta’riflar manba turi, iqtibos darajasi va ta’rifning asosiy semantik o‘zagiga ko‘ra tizimli ravishda taqdim etilgan.

1-jadval

Kreativ turizmga berilgan asosiy ta’riflarning qiyosiy tahlili

№	Muallif	Ta’rif	Yil
1	Richards & Raymond (2000)	Kreativ turizm — turistning mahalliy madaniyatni tomosha qilish o‘rniga, amaliy mashg‘ulotlar va ko‘nikmalarni o‘rganish yo‘li bilan faol ishtirok etishini ta’minlaydigan sayohat shakli.	2000
2	UNESCO (2006)	Sayyoh san’at, meros va mahalliy ijodiy hayotga bevosita ishtirok etish orqali autentik va shaxsiy tajriba qozonishga yo‘naltirilgan, o‘sha joyda yashovchi mahalliy aholi bilan muloqot imkonini beruvchi turizm turi.	2006
3	Richards, G. (2011)	Madaniy turizmning yanada barqaror ko‘rinishi bo‘lib, sayyohlarga faol ishtirok asosidagi ta’limiy tajribalar orqali o‘z ijodiy salohiyatini rivojlantirish imkonini beruvchi, ijodiy iqtisodiyot tushunchasi bilan uzviy bog‘liq turizm paradigmasi.	2011


4	Tan, Luh & Kung (2013)	Sayyohning o‘z ijodkorlik va tasavvur qobiliyatidan foydalanib, mahalliy madaniyat hamda meros bilan bevosita muloqotga kirishishini talab etuvchi turistik mahsulotlar majmui.	2013
5	Duxbury & Gillette (2007)	Mahalliy aholi va mehmonlarni autentik, amaliy va ta’limga yo’naltirilgan tajribalarga jalb etib, ijtimoiy hamjihatlik hamda jamoat rivojiga xizmat qiluvchi turizm shakli.	2007
6	UNWTO (2018)	Sayyohlar sayohat manzilining o‘ziga xos madaniy-ijodiy muhitida amalga oshiriladigan faol ishtirok asosidagi ta’limiy tajribalar vositasida shaxsiy ijodiy salohiyatini rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladigan turizm turi.	2018
7	Creative Tourism Network (2015)	Mahalliy madaniyat, san’at va hunarmandchilikka bevosita ishtirok etish imkonini beruvchi, sayyohning sayohat yakunida o‘z ijodiy mahorat va ko‘nikmalarini boyitgan holda uyiga qaytishini ta’minlovchi turizm shakli.	2015

Manba: muallif tomonidan adabiyotlar asosida tuzilgan.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, kreativ turizm ta’riflari uch asosiy yo‘nalishda rivojlanib kelgan: (1) turistning faol ishtiroki va o‘rganish jarayoni (Richards & Raymond, 2000; UNESCO, 2006); (2) shaxsiy ijodiy salohiyatning rivojlanishi (Richards, 2011; UNWTO, 2018); (3) mahalliy jamiyat va madaniyat bilan o‘zaro ta’sir (Duxbury & Gillette, 2007; Creative Tourism Network, 2015). Tan va boshqalarning (2013) ta’rifi esa mahsulot va xizmat kontsepsiyasi nuqtai nazaridan yondashib, yuqoridagi uch yo‘nalishni o‘zida sintez qilgan.

Shunday qilib, barcha ta’riflarda uchraydigan universal birlik — turistni faol ishtirokchiga aylantirishdir. Farqlar esa aksent nuqtalarida: birlari ta’lim va ko‘nikma rivojiga, boshqalari barqarorlik va jamiyat manfaatiga, yana boshqalari shaxsiy o‘sinh va ijodiylikka e’tibor qaratadi.

Tahlil qilingan ta’riflar asosida kreativ turizmning to‘rt qatlamli konseptual modeli shakllantirildi. Model turizmning kirish sharoitlaridan chiqish natijalarigacha bo‘lgan zanjirni aks ettiradi.



1-chizma. Kreativ turizmning to‘rt qatlamli konseptual modeli

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ta’riflarning qiyosiy tahlili bir qancha muhim xulosalar chiqarishga imkon beradi. Birinchidan, kreativ turizm — statik, tugallangan tushuncha emas; u davrning ijtimoiy-iqtisodiy talablariga ko‘ra evolyutsion rivojlanib borgan. Richards va Raymond (2000) ning dastlabki ta’rifida ishtirokchilik va o‘rganish asosiy mezon bo‘lsa, keyinchalik UNWTO (2018) barqarorlik va iqtisodiy samaradorlik o‘lchovlarini qo‘shib borgan.

Ikkinchidan, ta’riflardagi konvergensiya shuni ko‘rsatadiki, tadqiqotchilar va tashkilotlar mustaqil ravishda bir xil xulosaga kelganlar: kreativ turizm asosi — passivlikdan faollikka o‘tish. Bu esa mazkur xususiyatning universal, madaniyat va geografiyadan mustaqil xarakterga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Uchinchidan, ta’riflardagi divergensiya ham amaliy ahamiyatga ega. Bir tadqiqotchi ijodiy ko‘nikmaga urg‘u bersa, boshqasi ijtimoiy hamjihatlikni yoki iqtisodiy effektni ustun ko‘radi. Bu divergensiya yagona universal ta’rifning mavjud emasligi sababli emas, balki kreativ turizmning ko‘p o‘lchamli mohiyatini aks ettirgani uchun yuzaga keladi.

O‘zbekiston kontekstida kreativ turizm alohida strategik ahamiyat kasb etadi. Respublikamizning boy hunarmandchilik merosi (kandakorlik, zardo‘zlik, kulolchilik, to‘qimachilik), noyob me’moriy-tarixiy muhiti va milliy oshpazlik an’analari kreativ turizm uchun noyob resurs bazasini tashkil etadi. Ammo shu kunga qadar mazkur salohiyat tizimli konseptual asossiz qolib kelgan. Ushbu tadqiqot natijalari o‘zbek turizm sohasi uchun kreativ turizmni rivojlantirish strategiyalarini ilmiy asosda shakllantirishga metodologik zamin yaratadi.

Mazkur tadqiqot doirasida kreativ turizmning nazariy asoslari, xususan, dunyo ilm-fanida eng yuqori iqtibos ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan asarlar, xalqaro tashkilotlarning rasmiy belgilashlari va ixtisoslashgan tarmoq yo‘riqnomalari asosida tizimli tahlil amalga oshirildi. Quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi: Birinchidan, barcha ta’riflardagi umumiy o‘zak — turistning faol, amaliy va o‘rganishga yo‘naltirilgan ishtiroki bo‘lib, bu xususiyat kreativ turizmning tushunchaviy minimumi hisoblanadi.

Ikkinchidan, kreativ turizmni an’anaviy madaniy turizmdan farqlaydigan asosiy mezon — sayyohning mahalliy ijodiy jarayonga sirtqi kuzatuvchi emas, balki to‘laqonli ishtirokchi sifatida kirib borishi va bu jarayondan shaxsiy ijodiy tajriba orttirishi hisoblanadi.

Uchinchidan, taklif etilgan uch qatlamli konseptual model (kirish sharoitlari → jarayon → natijalar) kreativ turizm tizimini ilmiy jihatdan to‘liq aks ettiradi va uni amaliy tatbiq uchun yaroqli qiladi. Kelajakdagi tadqiqotlar uchun ustuvor yo‘nalish sifatida O‘zbekistonning alohida mintaqalari (Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo‘qon) misolida kreativ turizm salohiyatini empirik o‘rganish va milliy kontekstga moslashtirilgan konseptual modelni ishlab chiqish taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Duxbury, N., & Gillette, E. (2007). *Culture as a Key Dimension of Sustainability*. Vancouver: Creative City Network of Canada.
2. Creative Tourism Network. (2015). *Creative Tourism: A Global Conversation*. Barcelona: Creative Tourism Network.
3. Pine, B. J., & Gilmore, J. H. (1999). *The Experience Economy: Work Is Theatre and Every Business a Stage*. Boston: Harvard Business School Press.
4. Florida, R. (2002). *The Rise of the Creative Class*. New York: Basic Books.
5. Ohridska-Olson, R., & Ivanov, S. (2010). *Creative Tourism Business Model and Its Application in Bulgaria*. Proceedings of the Black Sea Tourism Forum, Varna.
6. Gretzel, U., & Jamal, T. (2009). Conceptualizing the creative tourist class. *Tourism Analysis*, 14(4), 471–481.
7. Mirzayev, B. (2022). O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 3, 112–124.
8. Abdullaev, S. R. (2023). O‘zbekistonda madaniy va kreativ turizm: holat va istiqbollari. *Turizm tadqiqotlari jurnali*, 1(2), 34–48.